

ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA IJODI ASARLARI

*Xolmamatova Farzona Himoyiddinovna*

*Toshkent davlat texnika universiteti Issiqlik energetika fakulteti "atom elektr stansiyalar" kafedrası 1-kurs 85-22 guruh talabasi*

*E-mail: [xolmamatovahmadwox@gmail.com](mailto:xolmamatovahmadwox@gmail.com)*

ANNOTATSIYA

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)- yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg, XX asr o'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri, o'zbek romanchiligi asoschisi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy hayoti, "Mushtum" jurnali "Mehrobdan" chayon romoni, "O'tgan kunlar" romoni, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti

1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Qodirbobo (1820-1924y) xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o'z tarjimai holida shunday deydi: "Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada tug'ilganman. Yoshim to'qqiz-o'nlargacha borgandan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv bilaturg'on odamga muhtoj edim. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabga yubordi. 1912-yilda manufaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm barobariga prikazchik bo'lub kirdim."

1904-1906 yillarda bo'lajak adib musulmon maktabida ta'lim oladi.

1908-1912 yillarda rus tuzem maktabida,

1916-1917 yilda Abulqosim shayx madrasasida arab va fors tillaridan saboq oladi,

1924-1925 yillarda V.YA Bryusov nomidagi Moskva adabiy kurslarida o'qiydi.

1918 yil- eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi

1919 yil - "Oziq ishlari" gazetasi bosh muharriri

1920 yil- Kasabalar sho'rosining sarkotibi

1923-1926 yillarda "Mushtum" jurnali tashkilotchilaridan biri va tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Adib tarjimai holida adabiy faoliyatining boshlanishini shunday xotirlaydi: "Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913 yilda o'zbekcha "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi. Adibning ilk chiqishi "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914 yili 1 aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan "Yangi masjid va madrasa" nomli xabari

bo'ladir. Adibning 1917 yili Oktyabr to'ntarishlaridan keyingi faoliyati asosan matbuot, ya'ni publitsistika bilan bog'liq. U 1919-1925 yillar oralig'ida 300 ta turli maqolalar, publitsistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: "Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir..." deydi. Abdulla Qodiriy "Ahvolimiz" she'rini 21 yoshida yozgan. She'rda ko'tarilgan muammo o'zbek xalqi uchun hamon dolzarb. Adibning bu kabi she'rlari millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan. Muallif unda millatning zabun holatidan kuyunib so'zlaydi, uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga undaydi.

### **"Mehrobdan chayon" romani**

O'zbek adabiyotining ikkinchi yirik romani ham Abdulla Qodiriy qalamiga mansub. "Mehrobdan chayon" romani 1928 yili fevralda yozib tugatilgan. 1929 yil Samarqand shahrida bosilib chiqqan. Bu roman mavzui ham "O'tkan kunlar" mavzuiga monand "xon zamonlari" davridagi o'zboshimchaliklar tasvirlangan. Asarning nomi ham ramziy, chunki unda adib ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlab sajdagohdan chiqqan, unga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, e'tiqodsiz, hasadgo'y kishilarga nishonadir. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi yozuvchining jiddiy yutug'i sifatida e'tirof etilgan. Romanda Anvar va Ra'noning sevgi sarguzashtlari shoirona tarzda tarannum etiladi. Go'zallik, halollik, oliyjanoblikka intiluvchi Ra'no xalq fe'l-atvoriga xos, ajoyib qiz, samimiy, toza niyatli, ma'nan sodda va ochiq. U Anvarni yorqin sevgi ila beg'araz va sadoqat bilan yaxshi ko'radi. Anvar-mardlik timsoli, adolatli, cheksiz vijdon egasi. "Mehrobdan chayon" romani asosida ham film suratga olingan.

### **„Mehrobdan chayon“ romoni**

Abdulla Qodiriy ikkinchi yirik asari „Mehrobdan chayon“ni 1928-yil fevralda yozib tugatdi. Roman 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Garchi bu roman mavzui ham XIX adabiyot hodisalari – „xon zamonlari“ davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsada, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli. Asarni „Mehrobdan chayon“ deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh – sajdagohdan chiqqan, o'sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romanda Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslikda yozuvchining jiddiy yutug'i, kashfiyoti sifatida e'tirof qilingan.

### **"O'tgan kunlar" romoni**

O'tkan kunlar o'zbek adabiyotida yangi realistik nasrga asos soldi. Keyinchalik mashhur sharqshunos akademik Yevgeniy Bertels shunday yozadi: "Qodiriy romanlari butun tarkibi bilan o'ziga xos uslubda yozilgan o'zbek romanlaridir. Dunyoda beshta, ya'ni: fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchiligi maktablari bor edi. Endi

oltinchisini, ya'ni o'zbek romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi ". „O'tkan kunlar“ romanining ma'no mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviyishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faravonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. „O'tkan kunlar“ bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlarini, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan gavdalantirilgan. „O'tkan kunlar“, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari, fojiasi juda katta mahorat bilan tasvir etilgan. Asardagi ishqiy sarguzashtlar kitobxonni hayajonga soladi, Otabek bilan Kumushning go'zal baxtini barbod etgan omillar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko'rinishida o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir degan fikrni g'oyat ustalik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs harakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsa-da, inson shaxsining muhit va sharoitga bog'liq bo'lmagan tug'ma, sirli-sehrli g'aroyib shevalariga ham e'tiborni tortadi. Bu jihatdan bir oila, bir xil sharoitda tug'ilib voyaga yetgan saviya-xarakter, surat va siymo vajidan ikki olam – egachi -singil Zaynab va Xushro'ybibi obrazlarining talqini g'oyat ibratlidir. Biri mute, itoatkor, nuqul o'zgalari izni bilan ish ko'radi; ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o'z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi. Yozuvchi bu ikki shaxs xarakteriga xos tug'ma xususiyatlarni sharhlash bilangina cheklanmaydi, bunday xislatlarning o'sha kimsalar, qolaversa, o'zgalari taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, fojeiy oqibatlarini ham ifoda etadi. O'zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo'ygan Zaynab shu ojizligi tufayli o'z baxtiga zomin bo'libgina qolmay, yana o'sha ojizligi tufayli o'zgalari qutqusi orqasida beixtiyor jinoyatga qo'l uradi – Kumushga zahar beradi. Mustaqillik, dadillik – yaxshi xislat, biroq unga xudbinlik aralashsa baloi azimga aylanishi mumkin. Xushro'ybibi o'z baxti uchun kurashadi; shaxsiy manfaatlari yo'lida hech narsadan qaytmaydi; birovlarining ko'z yoshlari hisobiga, o'zgalarning baxtiqaroligi evaziga o'z baxtini tiklaydi. Romandagi O'zbek oyim obrazi ham nihoyatda tabiiy va go'zal siymolardan biridir. Dumbul tabiat bu ayol o'g'li Otabek, qolaversa kelinlari – Kumush, Zaynab taqdirlarining chig'allashib ketishi, oxiri fojiaga yuz tutishida bosh sababchi ekani ayon. Biroq har qancha gunohkor bo'lmasin, o'ta andishali adib uni keskin qoralashga tili bormaydi. Nima bo'lganda ham, O'zbek oyim, baribir ona... Ayni paytda rostgo'y, realist yozuvchi onaning pala-partish, dovdur xatti harakatlaridan,

tabiatidagi ayrim kamchiliklaridan ko'z yumib o'tolmaydi. Bu borada adibga xalqona yumor qo'l keladi. Bu obraz tasviri boshdan-oyoq ajib serjilo – ham kinoyakesatiqgarga, ham ardoq-mehrga to'la yumor bilan yo'g'rilgan. Xullas, „O'tkan kunlar“ romani to'qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg'unligi jihatidan ham, mujassamot butunligi va tilidagi nafosati jihatidan ham o'zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o'rin olgandir. „O'tkan kunlar“ o'zbek adabiyotida ilk roman bo'lishining o'zi bilanoq ilgari bosilgan katta qadam edi. Unda realizmning asosiy tamoyillari yuqori badiiy saviyada amalga oshirildi. Roman, umuman, o'zbek adabiyotida yetuk realizmga asos soluvchilik rolini o'ynadi.

Biz badiiy asarlarda muallif nutqining ahamiyatini o'rganar ekanmiz, o'zbek milliy romanchiligi asoschisi A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida muallif nutqining juda antiqa shakliga duch keldik. "Kumushbibi uyqudan turib favqulodda bir holga uchraydi: bir kechada hammaning tushiga "to'y" kirib chiqqan. To'y uchun yangi ko'rpalar qoplamoqchi bo'ladilar, par to'shaklar olmoqchi bo'ladilar, kuyov uchun qanday kiyim yarashmog'i ham bahs qilinar, Oftob oyim eriga oltin kamar olmoqqa buyuradir... Tavba, demay chora yo'q: Oftob oyimning kuyovlari kim, qaysi qizlarini erga beradilar, ularning Kumushbibidan ham boshqa qizlari bormi? Ularning qizlari yolg'iz, demak, Kumush erga beriladir...

- Tushunarli gap emas:

- Erga kim tegadir?

- Kumush!

- Kumushbibi kuyovni yoqtiradimi, yo'qmi? Bu to'g'rida uning fikrini bilish kerakmi, emasmi?

- So'zlashish ham kerak emas, bildirish ham.

- Nega?

- Chunki odat shul? Kumush ota -ona yoqtirgan kishiga rozi bo'lish uchun majbur"

Mazkur badiiy nutq bayonini o'qigan kitobxon, albatta, ikki qahramon so'zlashayotgan dialog bo'lsa kerak, deyishi mumkin. Sinchiklab e'tibor bersangiz, bu nutqda hech qanday qahramonlar ishtirok etmayapti. Qizig'i shundaki, yuqoridagi ko'chirmani yozuvchi qahramonlar nutqiga ham yuklashi mumkin edi. Ammo Kumushbibining uyqudan uyg'onishi, bir kechada hammaning tushiga tuy kirib chiqishi, tuy uchun yangi ko'rpalaru par to'shaklarni tayyorlash kabi badiiy tasvirlarni faqatgina hokim nutq izohlab berishi mumkin. Izohdan anglashiladiki, muallif nutqining milliyliigi har bir so'z va iboralarda yaqqol ko'zga tashlanib tura di. Sharq xotin - qizlarining iffati, nafosati, go'zalligi, hatto kuyovni yoqtirish -yoqtirmasligi haqida u bilan so'zlashish kerak emasligi, balki odat shul ekanligi muallif nutqida ishonarli qilib berilgan. Bundan tashqari, "Qudalarni kutib olish" bobida shunday bir jumla bor: "Kumush salom berdi va qo'lidagi paranjisini yerga tashladi, yugurib kelib o'zini O'zbek oyimning quchog'iga otdi. O'zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab

olgan, yuzidan shap-shap o'pib, aylanib, o'rgilar va tikilib-tikilib nima uchundir yig'lar edi...»

Garchi yozuvchi bu o'rinda «nima uchundir» so'zini ishlatsa ham, kitobxon O'zbek oyimning «nima uchun yig'lashini» juda yaxshi tushunadi. O'zbek oyimday sodda va sofdil ayol Kumushning go'zalligini, uning bo'lakcha jozibasini, tortinchoq, uyatchan tabassumini ko'rganida o'zining nohaqligini, unga nisbatan qilgan adolatsizliklarini, uni baxtsiz qilib qo'yganini tushunmasligi mumkin emas edi. O'zbek oyim, soddadil ayollarga xos bir sezgirlik bilan buni tushungan va o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, ko'z yoshi to'kar va bu bilan Kumushdan kechirim so'rar edi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Izzat Sultonning "... badiiy asardagi muallif nutqi dastavval axborot xarakterga egadir", degan fikriga qo'shilgan holda o'z qarashlarimizni ham aytib o'tsak. Bizningcha, muallifning nutqi "axborot xarakteridan" iborat bo'lsa, asarning badiiy ta'sirchanligiga putur yetadi. Shunday ekan, yozuvchi muallif nutqida qahramonlarning ma'lum bir vaziyatdagi holati, milliy sharoit ta'sirida uning ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni badiiy tasvirlaydi.

Turkman yozuvchisi Xidir Deryayev shunday yozadi:

“Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romani menda bir umrga unutilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag‘ishlagan. Shundan keyin menda turkman xalqining o‘tmishi haqida roman yozish ishtiyoqi tug‘ildi. Katta niyat bilan „Qismat“ romanini ustida ish boshladim. A. Qodiriy o'zbek romanining asoschisi, "O'tgan kunlar" (1925), "Mehrobdan chayon" (1929), "Obid-Ketmon" hikoyasi va boshqa mashxo'r asarlarning muallifi. Ushbu uchrashuvning barcha ishtirokchilari Abdulla Qodiriy adabiy ijodining ahamiyati, Qodiriy fenomeni yozuvchi sifatida, hamda o'zining e'tiqodi va xalqiga sodiqligi uchun avtoritar tuzumning repressiyasidan aziyat chekkan tarixiy shaxs sifatida so'zladilar. Abdulla Qodiriy 1957 yilda oqlandi. 1990 yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1994 yilda u vafotidan keyin "Mustaqillik" ordeni bilan taqdirlandi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o'z asarlarida juda unumli va o'rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o'zbek adabiy tilining go'zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o'z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba'zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o'zbek adabiy tilining takomiliga xizmat qildi. Bu benazir adabiy-ilmiy xizmatlarni o'zbek olimlari bilan birga xorijlik mutaxassislar ham e'tirof etdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)**

1. Oybek, Asarlar [19 jildli], 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li), T., 1979;
2. Qodiriy H., Otam haqida, T., 1983; Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992; Qo‘shjonov M., O‘zbekning o‘zligi, T., 1994; Normatov U., Qodiriy bog‘i, T., 1995; Normatov U., „O‘tgan kunlar“ hayrati, T., 1996. Umaarali Normatov, Bahodir Karimov.
3. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati. T.: Fan, 1966.  
Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi. T., 1994.
4. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.  
Qodiriy H. Otam haqida. T., 1983.
5. Normatov U. Qodiriy bog‘i. T., 1995.
6. Karimov B. 20 asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 2002